



AMIR TEMUR SHAXSIYATI HAQIDA
(IBROHIM MO'MINOVNING "AMIR TEMURNING O'RTA OSIYO
TARIXIDA TUTGAN O'RNI" NOMLI RISOLASI ASOSIDA)

Termiz davlat pedagogika instituti tarix fakulteti talabalari

Choriyev Behruz

Tog'ayev Sherxonbek

Mo'minov Xikmatillo

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi, dunyo tarixida muhim iz qoldirgan sarkarda, milliy qahramon Amir Temur shaxsiyati, uning dunyoqarashi va boshqa fotihlardan farqli xususiyatlari haqida manbashunoslik va asosan tarixshunoslik ma'lumotlariga tayangan holda tahlil etishga va ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Sohibqiron, marksizm-leninizm, Ibrohim Mo'minov, Lenin,tuzuklar, To'xtamiz, Yakubovskiy, Klavixo "Esdaliklar'i, Zafarnoma.

Sohibqiron Amir Temur dunyo tarixida muhim iz qoldirgan shaxs. Uning boshqa fotih(sarkarda) larga o'xhash jihatlari ko'p bo'lsa-da, ammo o'ziga xoslik tomonlari ham yetarlicha.

Sovet davrida Temur haqida biryoqlama qarash hukmron edi. O'sha davr mafkurasi buni talab qilar edi go'yo. Rostdan ham o'sha davr mafkurasi, ya'ni Marksizm-Leninizm g'oyalari Temurni qoralashni talab qilar edimi? Yoki bu davlat o'z tarkibidagi milliy respublikalarni xuddiki provinsiyasi,qaram o'lka(haqiqatda ham shunday) sifatida past sanashi oqibati edimi?

Aynan shu kabi savollar bizni o'sha sovet davrida qilingan tadqiqotlarga murojaat qilishimizga sabab bo'ldi.

Akademik Ibrohim Mo'minov o'z davrining yetuk olimi ta'bir joiz bo'lsa, allomasi edi. U haqida ma'lumotlar bilan tanishar ekanmiz, shunga amin bo'ldik.

Bilamizki, bizning diyorda alifbo "islohoti" o'tkazilishi natijasida minglab qo'lyozmalarni erkin o'qiy olishdek baxtdan mosuvo bo'ldik. Bu ilm ahliga juda katta noqulaylikni keltirib chiqardi. Ammo shunda ham ilmiy jasorat ko'rsatib, qadim tillar, yozuvlarni o'rganib bizning tariximizga aloqador asarlarni maydonga olib chiqish hamma olimning ham qo'lidan kelavermagan. Ibrohim Mo'minovning Temur shaxsini bizga ochib berishi ham juda ajib usulda amalga oshirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibrohim Mo'minov Amir Temur haqidagi risolasini yozar ekan, bu risolasida, Temur shaxsini tanishtirishda uning ishlarini tahlil qilishda Karl Marks va Vladimir Lenin qarashlarini asos aniqrog'i me'zon sifatida oladi.

Xususan, Leninning ushbu so'zlarini keltiradi: "Tarixda o'tgan arboblarning ko'rsatgan tarixiy xizmatlari to'g'risida hukm chiqarganda hozirgi zamon talablariga nisbatan to'g'ri keladigan narsalar bergenligiga qarab hukm chiqarilmaydi, balki ularning



o'zlaridan avval o'tganlarga nisbatan qanday yangiliklar berganligiga qarab hukm chiqarilariladi".

Bu so'zlar shuni ko'rsatadiki, agar bu so'zlarga, "barhayot dohiy"ning so'zlariga amal qilinsa Temur shaxsi qanday tanishtirilishi kerak bo'ladi. U faqat bosqinchi deb hisoblanishi kerakmi yoki boshqachami?

Risolada u qadar batafsil yoritilmasa-da, Amir Temurning O'rta Osiyoda feudal tarqoqlikka barham bergenini qayd etadi. Temur ning o'z qo'li bilan yozgan "Tuzuklar"larida ham buni bilib olish mumkin.

"Chunonchi, Chingizxon avlodidan bo'lmish Tug'luq Temurxon Movarounnahr mulkini bosib olish qasdida qo'shin tortib, Xo'jand suvidan kechib o'tgach, menga, amir Hoji Barlos va amir Boyazid Jaloyir nomiga yorlig' jo'natib, uning huzuriga borishimizni talab qilgan edi. Ular men bilan kengashdilar: "O'z el-ulusimiz bilan Xurosonga ketaylikmi yoki Tug'luq Temurxon qoshiga boraylikmi?". Men ularga bunday yo'l ko'rsatdim: "Tug'luq Temurxonning huzuriga borsangiz ikki foyda bir ziyon bordir. Xuroson tomonga o'tib ketishning (esa) ikki ziyoni, bir foydasi bordir".

Ular mening kengashimga kirmadilar va Xuroson tomonga o'tib ketdilar".

Shundan ham bilish mumkinki, o'sha davrda Movarounnahrda feudal tarqoqlik shu darajaga yetganki, tinchlik davrida o'zlarini "hokimi mutlaq" deb hisoblagan bekliklar(amirlar), urush davrida yurtga yov bostirib kelganda faqat o'z xavfsizliklarini o'ylab, yurtdan qochib ketishgan.

Temur ham shunday yo'l tutishi mumkin edi. Ammo unday qilolmasdi. Chunki uning shaxsiyati, dunyoqarashi, Vatanga bo'lgan muhabbati, ozodlikka erishish ishtiyocqi, rag'bati bunga yo'l qo'ymasdi. Va ayni vaqtida mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat bu mustamlaka va zulm ostidagi xalqqa bir yo'l boshchi zarur ekanligini ko'rsatar edi.

Temurning Rus davlatining mustaqil bo'lishida ham xizmati beqiyos. Oltin O'rda xoni To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi, Oltin O'rdani zaiflashtirib qo'ydi. Va keyinchalik Oltin O'rda ta'sirida bo'lgan Rus knyazliklarining mustaqil davlat qurishiga xizmat qildi. Shu joyida bir savol tug'iladi. Temur nima maqsadda To'xtamish ustiga yurish qildi. Biz nimaga urg'u berib bu yurishlarni talqin qilyapmiz.

To'xtamish Temur yordamida taxtga kelsa-da, Movarounnahr shaharlari, qishloqlariga talonchilik yurishlarini to'xtatmadni. Bu Temur qurgan davlatning unga ishongan xalqning xavfsizligiga ochiq tahdid edi. Va Temur bunga reaksiya berishi kerak edi, albatta.

Reaksiya shunday bo'ldiki, Oltin O'rda deb atalmish ulkan bir davlat tanazzuliga sabab bo'ldi.

Rus olimlari ham buni alohida ta'kidlaydi.

"Garchi Temur O'rta Osiyo manfaatlarini ko'zlagan hamda Moskva knyazlari bilan aloqa bog'lamagan holda Oltin O'rdaga qarshi kurash olib borgan bo'lsa-da, bu kurash natijasida u O'rta Osiyonni birlashtiribgina qolmasdan, balki obyektiv ravishda Rus uchun juda katta xizmat qildi". A. Yu. Yakubovskiy

Temurning O'rta Osiyo manfaatlarini doim ustun ko'rganligini anglab oldik, chunki u vatanparvar va o'zi qurgan davlatning taraqqiysi uchun kurashuvchi mohir strateg,



siyosatchi edi. Temur o'z davlatining rivoji uchun boshqa davlatlarga doim bosqinchilik yurishi qilgan va doimiy vayronagarchilik bilan shug'ullangan degan qarash sovet davri olimlarida orasida hukmron qarash bo'lgan desam adashmayman. Ammo bu o'sha olimlarning Temur davrida yozilgan asarlarga bee'tibor bo'lishi oqibatida ro'y bergan bo'lsa kerak.

Ibrohim Mo'minov shu xalqning farzandi bo'lgani va o'z davrining yetuk, fidoyi ilm ahllaridan bo'lgani e'tiboridan oldingi olimlarni ishini shunchaki davom ettirib qo'ymadni, balki mqnbalgara murojaat qildi. Risolada ham asosan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sidan, Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Esdaliklar"idan, ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asaridan ko'plab iqtiboslar keltirgan.

Ibrohim Mo'minov "Zafarnoma"dan Temur shaxsini ideallashtirish maqsadida foydalanmaydi, balki ilmiy xolisona tahlil qilishga va shu orqali haqiqiy Temur bilan bizni tanishtirishga intiladi. O'sha davr sovet o'quvchisi, talabasi Temur deganda faqat bosqinchi, jallod, faqat va faqat vayronagarchilik bilan shug'ullangan shaxsni tushungan.

Ibrohim Mo'minov esa o'sha davrning dohiylari Lenin Marks qarashlarini asos qilib haqiqiy Temurni ilm bilan tanitgan.

Temurning tashabbusi bilan Samarkand va boshqa shaharlarda bir qator obodonchilik, qurilish ishlarini amalga oshirilgan. Mo'g'ullar istilosi natijasida xarob bo'lgan navqiron Samarkandda, shonli Movarounnahrda yangi bir davrni boshlab berdi. Ya'ni Temur o'zidan oldin o'tganlarga nisbatan afzal hisoblanadigan yangiliklarni tadbiq etdi. Mojor(venger) sharqshunosi Xerman Vamberi ham "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" kitobida buni ta'kidlaydi.

"Temurning O'rta Osiyo tarixidagi o'rnini shundan ham bilsa bo'ladi-ki, u o'z hokimligi bilan yangi sulolaga, Temuriylar sulolasini va asosan turk madaniyati deb atalishi mumkin bo'lgan O'rta Osiyo madaniyatining yangi davrini boshlab berdi."

Temur shaxsini tanitishda bizga yordam beradigan muhim manba Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridir. Ibrohim Mo'minov "Zafarnoma"dan Temur tilidan aytilgan so'zlardan bir qancha iqtiboslar ketiradi.

"... Yaxshi podshoh podshohlik qilish uchun hech qachon yetarli vaqtga ega bo'lmaydi.

Shuning uchun biz Qudratli Alloh bizga muqaddas sifatida topshirib qo'yan fuqaro foydasiga ishlashga majburmiz.

Bu hamisha mening asosiy mashg'ulotim bo'lib qoladi.

Negaki Qiyomat kuni faqirlar etagimdan tortib, mendan qasos olishni talab etishlarini men istamayman...".

Temur dindor shaxs bo'lganiga shubha yo'q, ammo tahlillar uni avvalo siyosatchi bo'lganini anglatadi. Temur Bag'dodda, Baylakonda, Kobulda, Turkistonda va yana bir qancha shaharlarda obodonchilik ishlarini amalga oshirishga doir farmonlari va uni amaldagi isboti tarixiy manbalarda qayd etilgan.

XULOSA.

Amir Temur avvalo o'z Vatani Movarounnahrning Chig'atoy ulusi manfaatlarini himoya qilgan, davlat va xalq xavfsizligi uchun fotihlik yurishlarini amalga oshirgan, o'zi bosib olgan hududlarda ham obodonchilik, qurilish ishlarini amalga oshirishga farmoyish



bergan, eng muhimi o'zidan oldingi va o'zidan keyingi hukmdorlardan afzalliklari ko'p bo'lgan islohotchi rahbar, tarixiy shaxsdir. Ibrohim Mo'minov yozgan risola bizga Temurni shunday shaxs sifatida tanitdi. Biz Temur shaxsini haddan ziyod ulug'lanishiga ham va bosqinchi sifatida talqin etilishini ham istamaymiz. Ilm ahllari, tarixchilar, faylasuflar, temurshunos olimlar Temur haqida ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Ular Temur shaxsini xolisona yoritishga urinib ko'rishdi. Ibrohim Mo'minov ham shunday olimlardan edi va bu harakati bosimlarga sabab bo'ldi. Bugungi kunda, tadqiqotchi sifatida Temur yoki boshqa tarixiy shaxslarni erkin xolisona tahlil eta olamiz. Va bunda o'zimizdan oldingi tadqiqotlarga murojaat qilishimiz ayni o'rinni ish hisoblanadi. Bu yo'ldagi dastlabki urinishlarga ushbu maqolani misol keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ibrohim Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi o'rni.(ikkinci nashr). Toshkent-1993.
- 2.Temur tuzuklari (Alixonto'ra Sog'uniy tarjimasi). Shodlik nashriyoti. Toshkent-2019
- 3.Sharafiddin Ali Yazdij. Zafarnoma.